




Buxoro viloyatida kichik tadbirkorlik

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-mart



➤ 2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining **YaHM** dagi ulushi **66,4 %** ni tashkil etdi.


➤ Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **17,8** birlikni tashkil qildi.

➤ 2021- yilning yanvar-martida **1731** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **37,1** foizga ko'p

2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi



2021- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda - 513 ta, sanoatda - 413 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - 296 ta, yashash va ovqatlanishda - 107 ta, qurilishda - 115 ta, tashish va saqlashda - 84 ta tashkil etilgan.

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2020- y.	2021- y.	Farqi (+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	20688	25716	5028
Yangi tashkil etilgan kichik Korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	1263	1731	468
<i>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</i>				
YaHM	%	64,1	66,4	2,3
Sanoat	%	27,5	32,5	5
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	98,7	99,1	0,4
Investitsiya	%	70,5	39,3	-31,2
Qurilish	%	89,3	77,7	-11,6
Chakana savdo	%	83,2	87,9	4,7
Xizmatlar	%	68,5	66,7	-1,8
Yuk tashish	%	88,9	89,6	0,7
Yuk aylanmasi	%	83,6	80,4	-3,2
Yo'lovchi tashish	%	96,2	96,0	-0,2
Yo'lovchi aylanmasi	%	96,3	96,3	-
Eksport	%	55,4	36,0	-19,4
Import	%	52,4	50,0	-2,4




2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHM va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da



Tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

	2020- yil yanvar-dekabr	2021- yil yanvar-dekabr	farqi (+;-)
Buxoro viloyati	1263	1731	468
<i>shaharlar:</i>			
Buxoro	346	412	66
Kogon	46	55	9
<i>tumanlar:</i>			
Olot	44	88	44
Buxoro	99	142	43
Vobkent	77	117	40
G'ijduvon	147	175	28
Kogon	69	89	20
Qorako'l	72	79	7
Qorovulbozor	27	42	15
Peshku	74	116	42
Romitan	119	162	43
Jondor	91	140	49
Shofirkon	52	114	62


2021- yil yanvar-martda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo'yicha ulushi, % da


2021- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Buxoro sh.– 23,8%, G'ijduvon tumani– 10,1%, Romitan tumani - 9,3%, Buxoro tumani – 8,2%, Peshku tumani – 6,7%, Kogon tumani–5,1%, Jondor tumani – 8,1%, Bobkent tumani - 6,8% hissalariga to'g'ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

	2020- y.yanvar-dekabr	2021- y.yanvar-dekabr	farq. (+;-)
Jami	1263	1731	468
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	192	296	104
Sanoat	230	413	183
Qurilish	113	115	2
Savdo	388	513	125
Tashish va saqlash	61	84	23
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	140	107	-33
Axborot va aloqa	15	22	7
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	31	30	-1
Boshqa faoliyat turlari	93	151	58

Ma'lumot uchun: 2021– yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'ringa ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda

	2020- yil yanvar-mart	2021- yil yanvar-mart	Farqi(+;-)
Buxoro sh.	346	412	66
G'ijduvon	147	175	28
Romitan	119	162	43
Buxoro	99	142	43
Jondor	91	140	49
Vobkent	77	117	40
Peshku	74	116	42
Shofirkon	52	114	62
Kogon	69	89	20
Olot	44	88	44

2021- yilning yanvar–martida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi viloyat bo'yicha Buxoro shahrida – 412 tani tashkil etdi.




Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda





2021- yil yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 17,8 birlikni tashkil etdi.

Buxoro viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-mart holatiga ko'ra*




2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga shahar va tumanlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida - 45,9 birlik, Buxoro shahrida - 28,1 birlik, Kogon tumanida - 27,0 birlik, Romitan tumanida - 21,0 birlik, Buxoro tumani - 19,5 birlik, Peshku tumani - 18,0 birlik, Kogon sh. - 17,0 birlikni tashkil etgan. Qorako'l tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib - 10,1 birlikka to'g'ri keldi.

* *Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)*




2021– yilning yanvar-martida shahar va tumanlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



2021- yilning yanvar-martida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda*



2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida - 45,9 birlik, Buxoro sh.- 28,1 birlik, Kogon tumanida - 27,0 birlik, Romitan tumanida - 21,0 birlik, Buxoro tumanida -19,5 birlik, Peshku tumanida - 18,0 birlik, Kogon sh.- 17,0 birlik, Jondor tumanida esa - 17,1 birlikni tashkil etdi.

* *Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)*

**Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)****Eng yuqori ko'rsatkich**

- Qororvulbozor tumani
- 45,9 birlik

O'rtacha ko'rsatkich

- Kogon shahar
- 17,0 birlik

Eng past ko'rsatkich

- Qorako'l tumani
- 10,1 birlik

**Kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushini ko'payish dinamikasi, yanvar-mart holatiga ko'ra, % da**


2021 - yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 66,4 % ni tashkil qildi. (2020-yilning yanvar-martida 64,1 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan ko'payish yirik korxonalar ulushining pasayishi bilan izohlanadi.

62,7%**2019 y.****64,1%****2020 y.****66,4%****2021 y.**



Kichik tadbirkorlikning iqtisodiy tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Buxoro viloyati	32,5	77,7	66,7	39,3
<i>shaharlar:</i>				
Buxoro sh.	48,2	88,3	44,9	48,1
Kogon sh.	23,4	35,0	79,8	59,3
<i>tumanlar:</i>				
Olot	47,5	78,5	86,7	32,7
Buxoro	64,2	88,7	81,3	91,4
Vobkent	100,0	100,0	83,8	95,8
G'ijduvon	34,5	99,9	84,2	96,2
Kogon	96,8	79,7	79,7	83,3
Qorako'l	50,7	96,1	79,9	78,3
Qorovulbozor	1,6	7,2	55,2	20,1
Peshku	41,2	100,0	84,0	98,2
Romitan	40,7	47,7	75,0	8,8
Jondor	67,5	100,0	77,4	70,5
Shofirkon	64,3	96,1	78,2	95,2

Shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

Sanoatda-

Vobkent (100%),
Kogon (96,8%),
Jondor (67,5%),
Shofirkon (64,3 %),
Buxoro (64,2%) va
Qorako'l (50,7%)
tumanlarida.


Qurilishda-


Peshku (100%),
Jondor (100 %),
Vobkent(100 %),
G'ijduvon(99,9%),
Qorako'l (96,1 %), va
Shofirkon (96,1 %)
tumanlarida.

Xizmatlarda-

Olot (86,7 %),
G'ijduvon (84,2 %),
Peshku (84,0 %),
Vobkent (83,8 %),
Buxoro (81,3 %) va
Qorako'l (79,9 %)
tumanlarda.


2021- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot(ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **36,7** million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining **36,0 %** ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, %da



2021- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Jondor tumani – 99,7%, Buxoro tumanida – 98,5%, Vobkent tumanida – 89,7%, Qorako'l tumanida-79,9%, Kogon tumanida – 78,6%, Buxoro sh. – 52,4%ni, eng past ko'rsatkich Kogon shahrida – 4,1%ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 59130,0 million AQSh dollarini yoki umumiy importning 50,0% ini tashkil etdi.





Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2021- yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Shofirkon tumanida – 100%, Peshku tumanida – 100,0 %, Qorako'l tumanida – 100,0%, Jondor tumanida – 98,4%, Buxoro tumanida – 97,6%. Eng past ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida - 3,6 % ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan **1323,7** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



2021- yilning yanvar-martida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi




Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Buxoro shahri (273,7mlrd. so'm), Kogon tumani (190,6mlrd. so'm), Jondor tumani (141,6mlrd. so'm), Gijduvon tumani (126,9 mlrd. so'm) va Shofirkon (104,6 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Qorovulbozor tumanida (24,9 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.



Mart oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi **32,5** foizni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-mart holatiga shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, %da




Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Bobkent tumani (100%), Kogon tumani (96,8%), Jondor tumani (64,3%), Shofirkon tumani (67,5%), Buxoro tumani (64,2%), Qorako'l tumani (40,7%), Buxoro sh. (48,2%), Olot tumani (41,2%), Peshku tumani (50,7,2%) va Romitan (40,7%) tumanlarida tashkil etdi. Qorovulbozor tumani (1,6%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2021- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **2383,6** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **83,2%** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **100,9** foizni tashkil qildi.



2021- yilning yanvar- martida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati




Shahar va tuman kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Buxoro shahri (644,4 mlrd. so'm), G'ijduvon (473,4 mlrd. so'm), Qorako'l (203,9 mlrd. so'm), Romitan (173,2 mlrd. so'm), Jondor (160,3 mlrd. so'm) va Buxoro (131,6 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



2021- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 1004,4 milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 77,7 foizini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 100,1 foizni tashkil qildi.




2021- yilning yanvar- martida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish surati




Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Buxoro sh.(268,7 mlrd.so'm), G'ijduvon (112,2 mlrd. so'm), Jondor (90,1 mlrd. so'm), Romitan (88,7 mlrd.so'm), Buxoro (81,7mlrd. so'm), Olot (72,9 mlrd. so'm), hamda Peshku (68,7 mlrd.so'm) tumanlarida qayd etildi.

2021-yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan **6527,7** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **66,1** ini tashkil qildi. 2020- yilning yanvar-martiga nisbatan **100,0** % ni tashkil etdi.






2021- yilning yanvar- martida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi haimi va o'sish sur'ati





Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Buxoro shahri (473,9mlrd. so'm), G'ijduvon (298,7 mlrd. so'm), Buxoro (125,0mlrd.so'm), Romitan (112,4 mlrd.so'm),Vobkent (113,0mlrd. so'm), Peshku (111,8mlrd.so'm) va Jondor(106,2 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



2021- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi **89,6** foizni tashkil etdi. 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan

0,8 % ga pasayish kuzatildi.

2021 - yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi **80,4** foizni tashkil etgan bo'lib, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **3,8** foizga pasayish kuzatildi.





2021- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi **96,0** foizni tashkil etib, bu esa 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **0,3** foiz pasayishiga olib keldi.

2021- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi **96,3** foizni tashkil etib, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'zgarish kuzatilmadi.

2021- yil I chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma **1283** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 542(42,3 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 679 (52,9%) ta sub'ektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 62 (4,8%) ta sub'ektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.




**2021- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*, % da**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanish (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 7,3 % (94ta), sanoatda – 16,4 % (211ta), qurilishda – 9,7% (125 ta) , savdoda – 34,9 % (448 ta), xizmatlar sohasida - 31,7% (405 ta) ni tashkil qildi.




2021- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Buxoro shahri (386 ta), G'ijduvon (141 ta), Romitan (129 ta), Buxoro (106 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.



2021- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, % da



2021- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin uch oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdo sohasida 61,2 % ni, sanoatda 60,0 %, qurilishda 59,7 % ni tashkil etdi.



Ishbilarmonlik muhiti
kuzatuvlari va tadbirkorlikni
rivojlantirish statistikasi bo'limi
Tel.: (65) 223-81-96